

***Sh.Q.Baliev, v.f.f.d., katta ilmiy xodim***

***N.A.Sulaymanova, kichik ilmiy xodim,***

***Veterinariya ilmiy- tadqiqot instituti***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mualliflar tomonidan baliqlarda uchraydigan infektion kasalliklaridan aeramanoz kasalligini tarqalishi, klinik belgilari, davolash va oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida adabiyotlar sharhi bayon etilgan.

**Kalit so‘zi:** baliq, infeksiya, krasnuxa, diagnoz, oq amur, karp, tolstolob, bakteriya, saprofit, nekroz, yallig‘lanish.

**Kirish.** Bugun mamlakatimizda baliqchilikni rivojlantirish va aholini reprodiktiv salomatligini saqlash maqsadida oqsilga boy mahsulot sonini ko‘paytirish bo‘yicha yurtimizda tubdan o‘zgarishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Mamlakatimiz rahbari tomonidan qabul qilinadigan qaror va farmonlar aynan baliq va baliq mahsulotlarini ko‘paytirish, urug‘lantirish va zararkunandalariga qarshi kurashish bo‘yicha olimlarimiz baliqchilik sohasiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishda baliq va baliq mahsulotlari asosiy o‘rinlarda turadi. Shu sababli aholi dasturxoniga sifatli baliq va baliq mahsulotlarini yetkazishda baliqlarni infektion kasalliklari to‘sqinlik qilib kelmoqda. Baliqlarni aeramanozi - o‘ta xavfli, keng tarqalgan infektion kasallik hisoblanadi. Bu kasallik asosan Ukrainianada, Shimoliy Kavkazda, Markaziy Osiyo Respublikalarda hamda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan. Kasallikka karp va yovvoyi sazan moyil. Kasallik bilan kamroq karas, lin, ok amur, tolstolob kabi baliqlar kasallanadi. Krasnuxaning yuqumli kasallik ekanligi ancha ilgaridan ma’lum. Uning qo‘zg‘atuvchisi to‘g‘risida uzoq muddat davomida aniq bir fikr yo‘q edi. 30-chi yillarda V.Sheperklaus uning bakteriyalar ko‘zg‘atilishi haqidagi gipotezani aytadi. Uning fikricha, krasnuxaning qo‘zg‘atuvchisi suvdagi saprofit Aeromonas punstata bakteriyasining virulentli formasi hisoblanadi, qaysikim suv havzalarning tubida uchratish mumkin. Ushbu bakteriyani sog‘lom baliqlarning ichaklaridan, to‘qimalaridan ajratib olish mumkin.



**1-rasm. Baliq yuzasidagi yaralarning ko‘rinishi.**



**2-rasm. Yosh baliqlar tana yuzasida yallig‘lanishlarni ko‘rinishi.**

Baliqlar uchun noqulay sharoit vujudga kelganida bular virulentli bo‘lib kasallik chakirishi mumkin. Sheperklausning ma’lumot berishicha, kasallik qish faslining oxirida kuzatiladi. Sheperklausning gipotezasini hozirgacha ko‘pchilik MDX va chet el olimlari qo‘llab quvvatlaydilar. Sog‘lom baliqka Aeromonasning kuchli ko‘lturasini yuborilganida krasnuxa kasalligini eslatuvchi, o‘lim bilan tugagan kasallik sodir bo‘lgan. Biroq, kasallikni o‘rganish jarayonida bu gipotezaga karama qarshi fikrlar paydo bo‘ldi. Masalan, krasnuxa bilan kasallangan baliqlar organizmida hamma vaqt ham Aeromonas bakteriyasini topishga erishilmaydi. Kasal baliqlardan ajratib olingen bakteriyalar sog‘lom baliqlardan ajratib olingen bakteriyalardan xech kanday farq qolmaydi. 30-chi yillarda G.V.Epshteyn, M.A.Peshkov, G.D.Goncharov va boshqalar, krasnuxaning virusli tabiatni xakida o‘zlarining muloxazalarini aytishdi. Ularning fiklarini keyinchalik bir qancha chet el olimlari ham ma’qulladilar. Epshteyn kasal baliqlarning bosh miyasidagi xujayrada eozinofilli tanachalar borligini aniqlagan, lekin sog‘lom va Aeromonas bakteriyasining ko‘lturasini yuborilgan baliqlarda bunday tanachalar yo‘qligini aniqlangan. Fiyan xodimlari va svillenberg bilan birga elektron mikroskopda virusni tekshirganlar. Uning uzunligi 70-180 nm bo‘lib shakli o‘zunchoq o‘qsimon shaklda. Vorionlarning bir tomoni yumaloq, ikkinchi tomoni yassi. Krasnuxa kasalligining virusini rabdoviruslar guruhiga kiritilib, uni Rabdovirus karpio deb nomlangan.

**Epizootologik ma’lumotlar.** Kasallikka karp turdagи baliqlar, sazan, ularning gibridlari moyil. Kasallik bahor faslining oxiridan boshlab yoz oylarida eng yuqori cho‘qqisiga yetib, kuzda kelib kamayib boradi. Ko‘pincha 2-3 yoshdagi baliqlar kasallanadi.

Kasallik manbai bu kasal baliqlar, ular ajratayotgan chiqindilari, o‘lgan baliqlar, infeksiyani tashuvchi sog‘lom baliqlardir. Suv havzalarida qo‘zg‘atuvchi suv orqali, kasal baliqlar orqali hamda ovda ishlatiladigan asbob-uskunalar orqali kiritiladi.

Baliqlarda viruslar shikastlangan teri orqali, jabrasi orqali kirib kasallikni chakiradi. Kasallanib sog‘aygan baliqlar organizmida nisbiy immunitet hosil bo‘ladi.

**Kasallikni klinik belgilari.** Kasallikni yashirin davri 2-30 kun. O‘tkir, yarim o‘tkir va surunkali oqimlarda kechadi. O‘tkir oqimda terining ayrim uchastkalari yoki butunlay barcha qismi gemorragik yallig‘lanadi, qorin bo‘shlig‘ida suv to‘planadi (vodyanka), ko‘zları ko‘r bo‘ladi (pucheglazie), teridagi tangachalarni qurib qolishi kuzatiladi. Kasal baliqlar kam harakat, suvning yuzasida, soxilga yaqin joylarda suzib yuradi, tashqi muhit tasurotlariga javob berishi sekinlashgan yoki umuman javob bermaydi, so‘ngra harakat koordinatsiyasining buzilishi kuzatilib 2-4 xtaftadan so‘ng nobud bo‘ladi. Yarim o‘tkir oqimida esa qorinda birdan suvning tuplanib qolishi, tangachalarni qurib qolishi, (pucheglazie), assit va turli xajmdagi yaralar bilan xarakterlanadi. Yaralar qizil tusda, ba’zan yaralarda yiringli jarayonlarni rivojlanishi oqibatida muskul to‘qimasining nekrozi kuzatilishi mumkin. Ba’zan esa suzgichlarni nekrozi namoyon bo‘ladi. Kasallikni yarim o‘tkir oqimi 1,5-3 oy davom etadi. Surunkali oqimida terida va suzgichlarda ochiq yaralar hosil bo‘ladi, yaralar tuzalgach uning o‘rniga ko‘kimir-yashil tusdagi biriktiruvchi to‘qima hosil bo‘ladi. Kasallik 1,5-2,5 oy davom etib tuzalish bilan tugaydi.

**Patanatomik o‘zgarishlar.** Kasallikni o‘tkir oqimida terida zardobli – gemorragik yallig‘lanish kuzatiladi, shishgan va nekroz muskullarda, ichaklarning kataral yoki gemorragik yallig‘lanishi, ichki organlari va qorin devorining giperemiyasi kuzatiladi. Jigar qora yoki qora-ko‘kimir tusda, ba’zan qora-yashil tusda, o‘t xaltasi o‘t suyuqligi bilan to‘lgan.suzgich xaltasining qon tomirlari kengaygan va qon bilan to‘lgan. Perikardda nuqtasimon qon quyilgan. qorin bo‘shlig‘i suv yoki qon aralash suv bilan to‘lgan. Xuddi shunga o‘xhash o‘zgarishlarni kasallikni yarim o‘tkir oqimida ham kuzatiladi. Surunkali oqimida esa ichki organlarda hech qanday o‘zgarish kuzatilmaydi.

**Diagnoz.** Kasallikka diagnoz epizootologik ma’lumotlarga asoslanib, klinik belgilari qarab, patanatomik o‘zgarishlari inobatga olib va bakteriologik tekshirish natijasiga asoslanib qo‘yiladi. Laboratoriya sharoitida qo‘zg‘atuvchini virulentli kulturasni ajratib olinadi, oq sichqon yoki sog‘lom baliqlarga bioprosba qo‘yiladi.

**Davolash, oldini olish va qarshi kurashish.** Davolashda vanna usulidan foydalinadi. Buning uchun 300 mg levomitsitinni bir litr suvga eritib, kasal baliqlarni 12 soatgacha ushlab turiladi. Sintomitsin (600-1000 mg/l, metilen ko‘ki (50,75, 100, 200 mg/l), bunda baliqlarni vannada saqlash muddati mos ravishda 12-16.7-10.4-6.2-4 soatni tashkil qiladi. Sun’iy suv havzalarida boqilayotgan, urchitilayotgan baliqlarga yem bilan kuniga 1-2 mg dan xar bir baliqka metilen ko‘ki beriladi (8-10 kun davomida) yoki sintomitsin 1-2 mg mikdorda. 2-yoshdagи baliqlarga (nagulnyix prudax) yuqoridagi dorilar qo‘yidagi dozada beriladi: metilen ko‘ki 3-5 mg, sintomitsin 2-3 mg har bir bosh baliqka bir sutkada. Naslli va yosh baliqlar (remontnyiy

molodnyak) alohida-alohida ishlovdan o’tkaziladi, levomitsitin qorin bo’shlig‘iga 20-30 mg/kg mikdorda ikki marotaba yuboriladi, biomitsin karplarga og‘iz orqali 50 mg/kg mikdorda 2-4 kun davomida beriladi. Barcha yoshdagi karplarning ozuqasiga furazolidon 60 g/10 kg ozuqa hisobida 10 kun davomida berib boriladi. Xar 5 kun da 2 kun tanaffus bilan beriladi. Profilaktika maqsadida furazolidon 10 kun davomida, 2-kunlik tanaffus bilan qo‘yidagi mikdorda beriladi: 10 kg kombikorma xisobida naslli va remont guruhidagilarga -0,4 g, ikki yoshdagilarga -0,3g, bir yoshdagilarga (50 g gacha bo‘lganlarida)-0,4 va segoletka -0,3g.

Kasallikni oldini olish maqsadida harorat 14 gradus bo‘lgungacha profilaktik oziqlantirish o’tkaziladi. Qayta oziqlantirish kasallik kelib chiqish ehtimoli bo‘lgan davrda o’tkaziladi. Iyul oyining ikkinchi yarmidan boshlab to oktabr oyigacha har 2-3 xافتада profilaktik oziqlantirish o’tkaziladi. Bulardan tashqari, vet.sanitariya va baliqchilik-meliorativ tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirib borish, ayniqsa profilaktik dezinfeksiya va dezinvaziya tadbirlarni amalga oshirish, ustirilayotgan baliqlarga vrachlik nazoratni muntazam ravishda olib borish, xo‘jalikda keltirilgan naslli va remont guruhdagi baliqlarga karantin o‘rnatish maqsadga muvofikdir. Ayrim baliqchilik xo‘jaliklarda aeromonoz kasalligining oldini olish maqsadida yozda suv havzalarini quritib tozalash ham yaxshi samara beradi.

**Xulosa.** Nosog‘lom baliqchilik xo‘jaliklarda va tabiiy baliqchilik suv havzalarida kasallik kelib chiqsa karantin o‘rnatiladi. Nosog‘lom suv havzalarida doimiy ravishda ishchilarni qo‘yib, alohida inventar va ovlash asbob-uskunalari bilan ta’minlanmoq, o‘lgan baliqlarning jasadini ushlab olib, 20%-li xlорli ohakda zararsizlantirgach, 1,5 m chuqur kovlab ko‘mib tashlash. Tirik kasal baliqlarni ovlab, vetvrachning xulosasi bilan tex.utilizatsiya qilish tavsiya etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Kochkarovich, B. S., Abdumuminova, S. N., & Rajaboyevna, B. Z. (2023). Episootiology, Treatment and Prevention of Lerneosis of Fish. *Journal of Advanced Zoology*, 44.
2. Mavlanov, S. I., & Sulaymanova, N. A. (2023). BALIQLARNING LERNEOZ KASALLIGI. *Science and innovation*, 2(Special Issue 8), 796-801.
3. Муртазин, Б., Элмурадов, Б., Болиев, Ш., Наврузов, Н., & Шералиева, С. (2013). Лечение и профилактика гинекологических заболеваний у коров. *Ветеринарна медицина*, (97), 337-338.
4. Болиев, Ш. К., & Кулдашев, О. У. (2018). СТИМУЛИРОВАНИЕ ВОСПРОИЗВОДИТЕЛЬНОЙ ФУНКЦИИ У КОРОВ. In *НАУКА XXI ВЕКА-ВЗГЛЯД В БУДУЩЕЕ* (pp. 120-122).
5. Baliev, S., & Ochilov, J. (2023). Treatment of Retained Placenta in Cows. *Global Scientific Review*, 11, 15-19.
6. Urinova, Z., Namozov, O., Baliyev, S., Karimov, M., Farmonov, N., Babaev, T., ... & Kambarov, A. (2024). Influence of nature and macromolecular characteristics

of carrier polymer on immobilization of bolaform ions. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 95, p. 01019). EDP Sciences.

7. Болиев, Ш. К., Шералиева, С., & Муртазин, Б. Ф. (2015). Профилактика послеродовых осложнений у коров. In *Материалы Междунаучно-практической конференции «Интеграция науки и практики в обеспечении ветеринарного благополучия», ТОО КазНИВИ.-Алматы* (pp. 79-83).

8. Enatillayevich, K. F., Madaminovich, S. J., & Ilhomovna, X. M. (2023). BALIQLARDA TRIXODINOZINING DAVOLASH USULLARI VA OLDINI OLİSH CHORALARI. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMİY JURNALI*, 2(4), 21-27.

9. Курбанов, Ф. И., Саттаров, Д. М., & Хушназарова, М. И. (2023). Меры лечения Сапролегниозам и Триходинозом. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMİY JURNALI*, 2(4), 40-45.

10. Ilhomovna, K. F. E. K. M., & Ziyodulloevich, K. Z. (2023). DEVELOPMENT OF NON-INFECTIOUS BRONCHONECROSIS IN FISH. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(12), 465-468.

11. Ilhomovna, K. F. E. K. M., & Ziyodulloevich, M. O. I. K. Z. (2023). PREVENTION OF FISH ASPHYSICS MEASURES. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(12), 469-472.

12. Курбанов, Ф., Хушназарова, М., & Саттаров, Д. (2023). Методы лечения и профилактики триходиноза рыб меры. *in Library*, 4(4), 21-26.

13. Khushnazarov, A., Rayimkulov, I., & Eshkoraev, A. (2023). METHODS OF KEEPING RABBITS IN MODERN CAGES. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 3(1 Part 2), 52-57.

14. Khushnazarov, A., & Davlatov, R. B. (2022). Rabbit eimeriozin in treatment vazuril of the drug efficiency. *Library*, 22(2), 173-174.

15. Хушназаров, А., Эшкораев, А., Ахмадалиев, Т., & Давлатов, Р. (2023). Эпизоотологические диагностические и профилактические данные эймериоз кроликов. *in Library*, 1(1), 1068-1080.

16. Khushnazarov, A. H., Rayimkulov, I. H., Eshkoraev, A. M., & Davlatov, R. B. (2023). CHEMIOPROPHYLAXIS OF EMERIOZINING IN RABBIT. *SCHOLAR*, 1(2), 56-62.

17. Davlatov, R. B., & Khushnazarov, A. X. (2022). TREATMENT AND PREVENTIVE MEASURES OF THE EPISITOLOGY OF RABBIT EMERIOSIS. *SCIENTIFIC JOURNAL OF AGROBIOTECHNOLOGY AND VETERINARY MEDICINE*, 181-184.

18. Urokova, M., Akramova, M., & Khushnazarov, A. X. (2021). Rabbits eimeriozin of treatment efficient methods. *Library*, 21(2), 115-117.

19. Мухаммадиев, У. И., Хушназаров, А. Х., & Давлатов, Р. Б. (2023). BIOLOGICAL CHARACTERISTICS OF RABBITS. KEEPING AND FEEDING TECHNOLOGY.

20. Мухаммадиев, У. И., Хушназаров, А. Х., & Давлатов, Р. Б. BIOLOGICAL CHARACTERISTICS OF RABBITS, KEEPING AND FEEDING TECHNOLOGY.

21. Khushnazarov, A. K., Khushnazarova, M. I., & Isokulova, Z. K. (2023). EIMERIOCID DRUGS KUYONG EIMERIOSYS KOLLASH. Innovative Development in Educational Activities, 2(1), 138-143.
22. Davlatov, R. B., & Khushnazarov, A. K. (2024). Diagnosis and chemoprophylaxis of rabbit eymeriosis. In E3S Web of Conferences (Vol. 480, p. 03020). EDP Sciences.
23. Газнакулов, Т. К., Орипов, А. О., Сафаров, А. А., Хушназаров, А. Х., Давлатов, Р. Б., Абдухакимов, Ш., & Мавланов, С. (2023). XC Салимов, МК Бутаев, ЗЭ Рузиев,—Биохавфсизлик.
24. Хушназаров, А., & Муртозаев, Н. (2020). Цистицеркоз билан касалланишни камайтиришнинг замонавий тамойиллари. in Library, 20(4), 20-21.
25. Газнакулов, Т., & Хушназаров, А. (2023). Литературный обзор по истории развития эпизоотологии и изучения бешенства. in Library, 1(2), 7-9.
26. Джураев, О., & Хушназаров, А. (2023). Порядок и методы патологического обследования сельскохозяйственных животных. in Library, 3(3), 21-25.
27. Xushnazarov, A., & Turdiyev, A. (2020). CHORVA FERMER XO'JALIKLARIDA NUTRIYACHILIKNI RIVOJLANTIRISH. Agrozoovetervis.
28. Xushnazarov, A. (2024). Қуёнларнинг эймериоз касаллиги (адабиётлар таҳлили бўйича). in Library, 21(4), 24–25. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/30516>
29. Xushnazarov, A. (2024). Қуёнчиликни ривожлантириш давр талаби (адабиётлар таҳлили). in Library, 21(2), 7–8. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/30517>
30. Xushnazarov, A. (2024). Қуён эймерозининг ўрганилиш тарихи ва систематик ҳолати (адабиётлар шарҳи). in Library, 1(2), 16–19. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/30520>
31. Xushnazarov, A., & Davlatov, R. (2024). Куён эймериозида қоннинг гематологик кўрсатгичлари. in Library, 22(4), 11–13. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/30519>
32. Xushnazarov, A., & Davlatov, R. (2024). Куён эймериозининг эпизоотологияси ва даволаш чора-тадбирлари. in Library, 22(4), 11–13. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/30518>
33. Хушназаров, А., Хабибулаев, С. Л., Рахматова, У., Орлова, Г. И., Толибова, Ф. Т., & Хушназарова, М. И. (2022). Защита кроликоферм от эймериоза. in Library, 22(2), 5-8.
34. Хушназаров, А. Х., & Давлатов, Р. Б. (2023). HISTORY AND SYSTEMATIC STATUS OF THE STUDY OF RABBIT EYMEROSIS.
35. Раимкулов, И., Хушназаров, А., & Эшкораев, А. (2023). Способы кормления кроликов в современных клетках. in Library, 1(1), 52-57.
36. Раимкулов, И., Хушназаров, А., Эшкораев, А., & Давлатов, Р. (2023). Химиопрофилактика эмериоза кроликов. in Library, 1(1), 56-62.

37. Khushnazarov, A., Khabibulaev, S. L., Rakhmatova, U., Orlova, G. I., Tolibova, F. T., & Khushnazarova, M. I. (2022). Quyonchilik xo’jaliklarini eymeriozdan asrash. Library, 22(2), 5-8.
38. Эшкораев, А., Хушназаров, А., & Давлатов, Р. (2023). Развитие, эпизотология, лечение и профилактика эмериоза кроликов. in Library, 1(1), 65-71.
39. Расулов, У., Хушназаров, А., & Давлатов, Р. (2023). Диагностика и эпизоотология эмериоза кроликов. in Library, 1(2), 366-368.
40. Урокова, М., Акрамова, М., & Хушназаров, А. X. (2021). Quyonlar eymeriozini davolashning samarali usullari.
41. Хушназаров, А., Урокова, М., & Курбонова, М. (2021). Қуёнларни эймериоздан асрайлик. Library, 21(1), 44-47.
42. Khushnazarov, A., & Davlatov, R. (2022). Rabbit eimeriozin in treatment new of eimeriostatic efficiency.
43. Khushnazarov, A., Urokova, M., & Kurbonova, M. (2021). Rabbits from eimeria Let's protect.
44. Khushnazarov, A. K., Eshkoraev, A. M., Akhmadaliev, N. T., & Davlatov, R. B. (2023). EPIZOOTOLOGICAL DIAGNOSTIC AND PREVENTIVE DATA OF EIMERIOSIS IN RABBITS. Innovations in Technology and Science Education, 2(7), 1068-1080.
45. Urokova, M., Akramova, M., & Khushnazarov, A. K. (2021). Quyonlar eymeriozini davolashning samarali usullari. Library, 21(2), 115-117.
46. Khushnazarov, A., & Davlatov, R. (2022). Quyon eymeriozini davolashda yangi eymeriostatikning samaradorligi. Library, 22(1), 28-29.
47. Давлатов, Р., & Хушназаров, А. (2022). Эпизотология эймериоза (кокцидоза) кроликов, лечение и профилактика. in Library, 22(4).
48. Khushnazarov, A. X. (2022). OBZOR LITERATURNYX DANNYX PO KHIMIOTERAPII I KHIMIOPROPHYLAKTIKI EYMEROZA KROLIKOV. Journal of PEDAGOGS, 23(2), 83-86.
49. Khudoyberdievich, K. A., Khushnazarova, M. I., & Isokulova, Z. X. (2022). PREVALENCE, DIAGNOSIS, TREATMENT AND PREVENTION OF RABBIT EMERIOSIS. RESEARCH AND EDUCATION, 1(9), 245-249.
50. Урокова, М., Акрамова, М., & Хушназаров, А. X. (2021). Эффективные методы лечения эмериоза у кроликов. in Library, 21(2), 115-117.